

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI**

**NAMANGAN VILOYAT XALQ
TA'LIMI BOSHQARMASI**

**UCHQO'RG'ON TUMAN XALQ TALIMI
MUASSASALARI FAOLIYATINI METODIK
TA'MINLASH VA TASHKIL ETISH BO'LIMI**

**Uchqo'rg'on tuman 21-sonli umumiy o'rta ta'lim
maktabi tarix fani o'qituvchisi
Ahmedova Dildoraning**

**9-SINFLAR UCHUN "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
PREZIDENTI ASARLARINI O'RGANISH" MAXSUS O'QUV
KURSIDAN TAYYORLAGAN**

DARS ISHLANMASI



NAMANGAN-2015

Mazkur dars ishlanma umumiy o'rta ta'lim maktablarining 9-sinflari uchun tarix fanidan Davlat ta'lim standartlari va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlarini o'rganish bo'yicha o'quv predmeti asosida tayyorlangan. Undan dars mashg'ulotlarida, "Yosh tarixchi" to'garagi mashg'ulotlarida hamda iqtidorli o'quvchilarni olimpiadalarga tayyorlashda foydalanish tavsiya etiladi.

Tuzuvchi : D.Ahmedova – Uchqo'rg'on tuman 21-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi

Taqrizchi : A. Bo'stonov – NVXTXQTMOI ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasida katta o'qituvchisi, xalq ta'limi a'lochisi

Mazkur dars ishlanma Uchqo'rg'on tuman 21-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi ijtimoiy fanlar uslubiy birlashmasining 2015-yil _____dagi ___-sonli yig'ilishida muhokama etilgan va NVXTXQTMOI ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasining 2015-yil _____dagi ___-sonli yig'ilishi qaroriga muvofiq foydalanishga tavsiya etilgan.

MAVZU: GLOBALLASHUV JARAYONLARI VA MA'NAVIY TAHDIDLAR

DARSNING TEXNOLOGIK XARITASI

Maqsad va vazifalar	<p>Maqsad: Prezidentimiz Islom Karimovning “Yuksak ma’naviyat yengilmas kuch” asaridagi “Globallashuv jarayonlari va ma’naviy tahdidlar” mavzusi bo’yicha bilimlar berish.</p> <p>Vazifalar: O’quvchilar bugungi murakkab globallashuv davrida ma’naviyat sohasida vujudga kelayotgan dolzarb muammolar, xalqimiz ma’naviyatini asrash va yuksaltirish, yosh avlodning qalbi va ongini turli zararli g’oya va mafkuralar ta’siridan saqlash va himoya qilish uchun lozim bo’lgan bilim, ko’nikma va malakalarga ega bo’ladilar. Ular mavzuning mazmun-mohiyatini o’zlashtiradilar. Mavzuga oid topshiriqlarni yakka va guruh bo’lib bajarishni o’rganadilar. O’quvchilarning yangi mavzuni o’zlashtirganlik darajasi nazorat qilinadi, bilimlari baholanadi.</p>
O’quv jarayonining maqsadi	<p>Ta’limiy maqsad: O’quvchilarga milliy manfaatlarimizga, hayot tarzimizga zid bo’lgan zararli g’oyalar va mafkuraviy hurujlarning mohiyatini ochib berish, ularning qalbida milliy tafakkur va sog’lom dunyoqarash asoslarini mustahkamlash, globallashuv jarayonlari va ma’naviy tahdidlar haqida ma’lumotlar berish.</p> <p>Tarbiyaviy maqsad: O’quvchilarning mafkuraviy immunitetini shakllantirish orqali ularni ona Vatanga muhabbat, fidoyilik, insoniylik, boy tariximizga, ota-bobolarimizning muqaddas diniga sadoqat ruhida tarbiyalash.</p> <p>Rivojlantiruvchi maqsad: O’quvchilarda ma’naviy hayotimizni turli tahdid va hurujlardan himoya qilish masalasiga bo’lgan burchi va mas’uliyatini shakllantirish, mustaqil va erkin fikrlashga o’rgatish, mavzuga oid bilim, ko’nikma va malakalarni hayotda qo’llashga o’rgatish.</p>
O’quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	<p>Darsning turi: O’quvchilarda mavzuga oid yangi bilim va tushunchalar shakllantirish</p> <p>Darsning uslubi: Noan’anaviy interfaol usullar, kichik guruhlarda ishlash, test yechish va savol-javoblar o’tkazish, taqdimotlarni izohlash;</p> <p>Darsning jihozi: O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” kitobi va mavzuga oid boshqa asarlari, kompyuter va videoproyektor, mavzuga oid rasmlar, plakatlar, xarita va slaydlar, vatman qog’oz hamda filmlar yozilgan disklar, qo’shimcha adabiyotlar.</p> <p>Baholash shakllari: Rag’batlantirish, besh balli reyting asosida</p>

	baholash.
Kutiladigan natijalar	<p>O‘qituvchi: O‘quvchilarni turli ma’naviy hurujlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo‘lgan irodali va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga erishadi. O‘quvchilarning faolligini, darsga nisbatan qiziqishini oshiradi;</p> <p>Yangi pedagogik texnologiyalarni o‘zlashtiradi va darsga tadbiq etib, takomillashtirishga erishadi, o‘z ustida ishlaydi, pedagogik mahoratini oshiradi.</p> <p>O‘quvchilar: Yangi bilimlarni egallaydilar yakka holda va guruh bo‘lib ishlashni o‘rganadilar. Nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi. Qisqa vaqt ichida ma’lumotlarga ega bo‘ladilar va baholanadilar.</p> <p>Prezidentimizning “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asari va boshqa asarlarini o‘rganib, globallashtirish jarayonlari va ma’naviy tahdidlar haqidagi ma’lumotlarni tahlil qiladilar. Ularda mustaqil fikrlash va ishlash ko‘nikmasi shakllanadi.</p>

Darsning tuzilishi

1. Tashkiliy qism
2. Ma’naviyat daqiqasi
3. O‘tilgan mavzuni takrorlab, mustahkamlash
4. Yangi mavzuni tushuntirish
5. Yangi mavzuni mustahkamlash
6. O‘quvchilarni baholash
7. Uyga vazifa berish

1. TASHKILIY QISM (3 daqiqa)

- A) Salomlashish
- B) Davomatni aniqlash
- C) Dars mazmuni bilan o‘quvchilarni tanishtirish

2. MA’NAVIYAT DAQIQASI (3 daqiqa)

O‘quvchilar “Ma’naviyatli inson qanday bo‘lishi kerak?” savoliga tezkor javob beradilar (tez va bir jumla orqali).

O‘quvchilar soniga qarab, guruhlarga bo‘linadi. Har bir guruhning to‘plagan ballari

jamlab boriladi va dars soʻngida hisoblab, gʻolib guruh aniqlanadi.

1-guruh – “Insonparvar”


2-guruh – “Fidoyilar”

3. OʻTILGAN MAVZUNI TAKRORLAB, MUSTAHKAMLASH (13 daqiqa)

Oʻtilgan mavzu guruhlarda musobaqa tashkil etish orqali mustahkamlanadi. Guruhlar 4 shart boʻyicha oʻtilgan mavzuni yoritib boradilar.

1-shart. “Toʻxtab qolma” sharti boʻlib, bunda oʻquvchilar “Islohotlar va ularning maʼnaviy mezoni” mavzusining mazmuni yuzasidan “Bayt-baron” shaklda fikrlar bildiradilar. Toʻxtab qolgan guruhning bali pasayadi.

2-shart. “Klaster” usulidan foydalaniladi. Birinchi boʻlib va toʻgʻri bajargan guruh gʻolib boʻladi va ragʻbat kartochkasi oladi.



3-shart. Bu shartda guruhlarga 2 daqiqa vaqt beriladi va test bajariladi.

Test savollari guruhlar uchun bir xil variantda boʻlib, yechib boʻlganidan soʻng

varoq ostiga guruh nomini yozishlari lozimligi tushuntiriladi.

Test savollari

1. Har qanday islohotning pirovard natijasi nima bilan baholanadi?

- A) Davlatning kuch-qudrati oshganligi bilan
- B) Islohotlar odamlarning hayotiga, ularning farovonligini oshirishga ko'rsatadigan ta'siri bilan
- C) Islohotlar zarurligini ko'pchilik aholi tushunishi va qo'llab-quvvatlashi bilan
- D) B va C javoblar to'g'ri

2. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar va yangilanishlarning markazida

- A) Davlat manfaatlari turadi
- B) Inson va uning manfaatlari turadi
- C) Qonun ustuvorligi turadi
- D) Beshta tamoyilga amal qilish turadi

3. Mamlakatimiz Prezidenti "Demokratiyaning ikki muhim jihati, ikki qanoti" deb, nimalarni nazarda tutgan?

- A) Moddiy va ma'naviy hayot uyg'unligini
- B) Davlatning bosh islohotchi bo'lishi va qonun ustuvorligini
- C) Huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini
- D) Xalq va davlat birligini

Test uchun ajratilgan vaqt tugagach, guruhlar topshiriqlarni o'zaro almashtirib, bir-birlarining ishlarini tekshiradilar va har bir to'g'ri javob uchun bir balldan kelib chiqib baho qo'yadilar.

4-shart. Bu shart "Tushunchalar tahlili" deb nomlanib, unda ikki guruhga tarqatma savol beriladi va uni izohlash vazifasi qo'yiladi.

1-"Insonparvar" guruhiga: *"...Islohot-islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak"*

2-"Fidoyilar" guruhiga: *"Kuchli davlatdan – kuchli fuqarolik jamiyati sari" tamoili*

Shartlar tugagandan so'ng o'qituvchi guruhlar to'plagan ballarni ma'lum qiladi. So'ngra yangi mavzu va uning rejasini e'lon qilib, videoprojektor orqali taqdim etadi. O'quvchilar mavzu va uning rejasini daftarlariga yozib oladilar.

4. YANGI MAVZUNI TUSHUNTIRISH (12 daqiqa)

Mavzu: Globallashuv jarayonlari va ma'naviy tahdidlar

REJA:


1. Globallashuv tushunchasi va uning mazmun-mohiyati
2. Globallashuv jarayonlarining ijobiy va salbiy oqibatlari
3. Axborot xurujlari, ma'naviy-mafkuraviy tahdidlardan himoyalash yo'llari va choralari

MAVZUNING ATAMALARI VA ASOSIY TUSHUNCHALARI

Globallashuv, fenomen, mintaqaviy muammolar, axborot texnologiyalari, mafkura poligonlari, mafkuraviy tazyiq, demokratik qadriyatlar, "ommaviy madaniyat", ma'naviy qadriyatlar, ma'naviy tahdid, g'oyaviy bo'shliq, individualizm, egosentrizm.

Yangi mavzu "Aqliy hujum" va reja asosida kichik ma'ruza bilan o'rganiladi.

A) Mavzuga oid inglizcha atamalar videoproyektorda namoyish etiladi.



B) “Aqliy hujum”. Yangi mavzuni tushuntirishdan avval o‘qituvchi o‘quvchilarga “Ma’naviyat qachon ojiz va zaif nuqtaga va aksincha qachon qudratli kuchga aylanadi?” savolini o‘rtaga tashlaydi.

C) “Kichik ma’ruza”. O‘qituvchi o‘quvchilar tomonidan berilgan javoblarni umimlashtirib, yangi mavzuni ma’ruza usulida tushuntiradi. Mavzuga oid slaydlar va multimediali ko‘rgazmalar videoprojektorda namoyish etib boriladi. Mavzuda uchraydigan yangi atamalar va izohtalab tushunchalar izohlanadi.



MAVZUNI MUSTAHKAMLASH (8 daqiqa)

O'qituvchi mavzuni tushuntirib bo'lgach, uni mustahkamlash uchun guruhlarga rangli kartochkalarga yozilgan 3 tadan test savollari tarqatiladi.

Test savollari

1. Prezidentimiz Islom Karimov globallashuvga qanday ta'rif bergan?

- A) Globallashuv yalpi axborotlashuvdir
- B) Globallashuv – bu avvalo hayot sur'atlarining beqiyos darajada tezlashuvi demakdir.
- C) Globallashuv – bu yuksak texnologiyalar davridir
- D) Globallashuv intellektual salohiyat va tafakkur asridir

2. Qaysi fikr to'g'ri? Hozirgi davr

- A. Yadro poligonlari mafkura poligonlaridan kuchli bo'lib borayotgan davr;
- B. Mafkura poligonlari yadro poligonlaridan kuchli bo'lib borayotgan davr;
- C. Yadro poligonlari bilan mafkura poligonlari musobaqasi davri;
- D. Yovuz va ezgu g'oyalar o'rtasidagi kurash davri;

3. Mafkuraviy jarayonlarning globallashuvi nima?

- A. Mafkuraviy jarayonlarning ayrim mamlakatlarni qamrab olishi;
- B. Mafkuraviy jarayonlarning butun dunyoni qamrab olishi;
- C. Mafkuraviy jarayonlarning bitta mamlakatni qamrab olishi;
- D. Mafkuraviy jarayonlarning tez tarqalib borishi;

Shundan so'ng vatman qog'ozda BKMLar tahlil qilinadi.

BKM larni tahlil qilish		
1.	BKMLar mazmuni	Izohi
2.	Globallashuv	
3.	Yuksak texnologiyalar asri	
4.	Mafkura poligonlari	
5.	Ma'naviyat – qudratli kuch	
6.	“Ommaviy madaniyat” va uning maqsad va vazifalari	
7.	Axloq kodeksi	
8.	Ma'naviy tahdid	

6. O'QUVCHILARNI BAHOLASH (4 daqiqa)

Dars so'ngida guruhlarining dars davomida to'plagan ballarini jamlanadi va g'olib bo'lgan guruh e'lon qiladi. Faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi va baholar izohlanadi.

7. UYGA VAZIFA (2 daqiqa)

Shundan so'ng, o'qituvchi darsga yakun yasaydi va uyga vazifa beradi:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch" kitobidan hamda "Milliy istiqlol g'oyasi va ma'naviyat asoslari" darsligidan dars mavzusini o'qib kelish.
2. Mavzudagi atamalarni yod olish
3. Yangi mavzudan savol-javoblar tuzish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T.: "O'zbekiston", 1998.
2. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". – T.: "Ma'naviyat", 2008.
3. Karimov I.A. "O'zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida". "O'zbekiston", - T. : 2011.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida" 451-Qarori, "Ma'rifat" gazetasi, 2006-yil 26-avgust.
5. Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari uchun darslik. –T.: O'qituvchi, 2011
6. Tarix fanidan umumiy o'rta ta'limning Davlat ta'lim standartlari va o'quv dasturi, - T.: 2010

